

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

1-oktyabr- O'qituvchi va
Murabbiylar kuni



№9 – SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, SENTYABR





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazolimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani professor

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 603 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29-sentyabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ЭТАПЫ РАЗРАБОТКИ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	7
Кучаров Абдор Собиржонович, Бобожонов Азизжон Бабаханович, Хусейнов Рахим Али оглы	
KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASHGA QARATILGAN TA‘LIM XIZMATLARI KO‘RSATISH TURLARI TAHLILI	16
Ergashev To‘lqin Shokirovich	
ЭВОЛЮЦИЯ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	23
Мирисаев Абдурахман Абдулахатович	
E-COMMERCE DIFFERENCES BETWEEN DEVELOPING AND DEVELOPED COUNTRIES.....	33
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING MARKETING DASTURLARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	40
Ikramova Taxmina Latifovna	
MINTAQAVIY RESURLARNI BOSHQARISHDA MENEJMENT YONDASHUVLARI: INSTITUTSIONAL NAZARIYA VA IQTISODIY XAVFSIZLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	50
Ismoilov Abdulxoliq Muxiddin o‘g‘li	
TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YETAKCHILIK MODELLARIDAN FOYDALANISH	60
Kazakov Olim Sabirovich	
TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI QABUL QILUVCHI MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA TA‘SIRI BO‘YICHA EKONOMETRIK DALILLAR: USLUBLARGA ASOSLANGAN SHARH	67
Madumarov Xusniddin Komilovich	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA‘MINLASHDA KORPORATIV MADANIYAT VA MARKETING STRATEGIYALARI UYG‘UNLIGI	78
Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna	
AHOLINING MODDIY FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI	84
Mirzamurodov Oltinbek Sultonali o‘g‘li	
SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN KICHIK BIZNESDA FOYDALANISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI	90
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
CHAKANA SAVDODA ONLAYN KO‘RIB, OFLAYN XARID QIL (ROPO) MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI ANIQLASH.....	98
Rajapova Gulmira	
TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY MEXANIZMLARNING ROLI VA SAMARADORLIGI	105
Agzamova Marguba Mirabdullayevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ISHLAB CHIQRISHNI AVTOMATLASHTIRISH, ERP VA CRM TIZIMLARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	113
Uzakova Umida Ruziyevna	
FEATURES AND DISADVANTAGES OF IMPLEMENTING THE DIGITAL ECONOMY FOR CONSTRUCTION COMPANIES	122
Kurbanova Maftuna Lazizovna, Muhammad al-Khwarizmi	
LEVERAGING INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN RETAIL THROUGH DISTRIBUTED DATA AND KNOWLEDGE-BASED SYSTEMS	134
Karimova Nafisabonu Djamshidovna	
XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNI BAHOLASH BO‘YICHA USLUBIY YONDASHUVLAR....	145
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	

FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING REMOTE BANKING SERVICE	154
Abduvohidov Abdumalik Mahkamovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING	
IQTISODIY-IJTIMOIIY OQIBATLARI TAHLILI	161
Xatamov Nurbek Ochildiyeovich	
THE IMPACT OF GREEN BUSINESS EDUCATION AMONG ENTREPRENEURS ON THE	
ECONOMY: A LITERATURE REVIEW	172
Amonov Sardor Zamon o'g'li, Turobova Hulkar Rustamovna	
ISTE'MOLCHILARNING EKOLOGIK ONGINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI	
MARKETINGNING ROLI	188
Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARNI BOSHQARISHNING	
XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	196
Uzakova Umida Ruziyeвна	
TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH VA LOGISTIKA	
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH	
IMKONIYATLARI.....	203
Qilichev Umid Ibodullayevich	
UNIVERSITETNI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA BENCHMARKING USULIDAN	
FOYDALANISH YO'LLARI.....	210
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHI TAHLILI	219
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH	
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING	
NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	228
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK TOMONIDAN ISHLAB	
CHIQUILGAN MAHSULOT HAJMINING PROGNOZLASH.....	237
Xudoyorov Laziz Niyozovich	
РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ	
ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ.....	246
Азизов Ильдар Рафаэльевич	
TIJORAT BANKLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI RAQAMLI XIZMAT TURLARI ORQALI	
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLARI.....	254
Foziljonova Mushtariybonu Farruxbek qizi	
KORXONALAR PUL OQIMLARI BOSHQARUVIDA PROGNOZ USULLARIDAN FOYDALANISH	
.....	263
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
ELEKTRON SAVDO SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI	
INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING O'RNI VA AMALIY	
JIHATLARI.....	270
Abidjonov Nodirbek Odiljon o'g'li	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDAGI ILG'OR XORIJ MAMLAKATLAR	
TAJRIBASI.....	277
Rajabov Alibek Xushnudbekovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA YASHIL SUG'URTA KONSEPSIYASI: ZARURAT, JORIY	
HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	285
Zoyirov Laziz Subxonovich	
BREND QIYMATINI ANIQLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA ULARNING	
SAMARADORLIGI.....	294
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Odilov Akbarjon Nosirjon o'g'li	
XUSUSIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNI	
TAKOMILLASHTIRISH.....	304
Gulmatov Bahodir Xabibullayevich	

KORXONALAR BREND QIYMATINI ANIQLASHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI	311
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich	
MINTAQA TURIZM SALOHİYATINI VA UNGA TASIR ETUVCHI OMILLAR.....	318
Nasriddinov Husanbek Sadriddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI DON MAHSULOTLARI TARMOG'IDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUV	324
Dildora Kurbanova	
XALQARO SAVDONING SIRKULAR IQTISODIYOT TAMOIYLLARIGA UYG'UNLASHUVIDA ASOSIY TENDENSIYALAR.....	333
Muratova Shohista Nimatullayevna	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	342
Yuldasheva Dildora Kamiljan qizi	
KOMPAIYALARDA IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI YAXSHILASHDA XODIMLAR SALOHİYATINING O'RNI.....	350
Sattarov Shuxrat Abug'affarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	355
O'rozov Azamat Otaboyevich	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI KPI VA ROI INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	363
Muminova Dildora Dilshadovna	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT THROUGH INVESTMENT: INTERNATIONAL EXPERIENCE OF DEVELOPING COUNTRIES	371
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
MILLIY IQTISODIYOTNING TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA YONDASHUVLAR.....	378
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
"DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI" TOIFASIGA YONDASHUVLARNING PAYDO BO'LISHI VA EVOLYUTSIYASI	384
Karimov Javlon Ko'ziyevich	
ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) TAMOIYLLARINI DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA JORIY ETISH.....	395
Ismailov Allayor Rashidovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQRISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOIYLLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR.....	405
Achilov Ilmurad	
INVESTITSION SALOHİYATNI OSHIRISH ORQALI MINTAQALARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	415
Qobilov Anvar Eshpo'lotovich	
"YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYLLARI ASOSIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK SOHASIDA BOSHQARUV QARORLARINI ASOSLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	424
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA KOMPAIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	433
Haqberdiyev Bekzod Uktamovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA ATROF MUHIT MUHOFAZASINI TA'MINLASH MAQSADIDA KICHIK BIZNES VA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	444
Uskenbayeva Dilnoza Bakhodir qizi	
TRANSPORT TIZIMLARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	453
Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li	

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MASALALARI	459
Xusanova Gavhar	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGI ASOSIY KO'RSATKICHLARI VA ULAR DINAMIKASI TAHLILI.....	467
Atayev Jahongir Erkinovich	
СОВРЕМЕННАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА	476
Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH BO'YICHA XORIY TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	487
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAHOLASH VA BOSHQA TUZILMALARNING O'ZARO HAMKORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	496
Rixsimbayev Odiljon Kabildjanovich	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH VA SANOAT KORXONALARINI JOYLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	505
Nuritdinov Botir Kodirxanovich	
INVESTITSIYALAR VA ULARDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	517
Isakov Axmadali Esanbaevich	
KORXONALARNI BUDJETLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBALARI.....	525
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA JORIY MEXANIZMLARNING TAHLILI	537
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TASHABBUSLI BYUDJETLASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARIGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR HAMDA ERISHILGAN NATIJALAR TAHLILI.....	545
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN DIGITAL MARKETING OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN.....	553
Sadikov Shokhrux Shukhratovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	558
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA TURIZM SOHASIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH	566
Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna	
MINTAQALAR KESIMIDA INNOVATSION SALOHİYAT NOMUTANOSIBLIKLARINING SABABLARI VA EKONOMETRIK TAHLILI.....	576
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
MINTAQAVIY SANOATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	586
Ochilov Akram Odilovich, Ro'ziqulov Jamshid Ulug'bek o'g'li	
SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA UNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI.....	594
Sherov Sanjar Radjabovich	

AHOLINING MODDIY FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI

Mirzamurodov Oltinbek Sultonali o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Ekonometrika” kafedrası mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: oltinbekmirzamurodov96@gmail.com

Annotatsiya

Farovonlik har bir xalqning azaliy maqsadi, mamlakat taraqqiyotining mezon ekani o'z ifodasini topgan. Aholi farovonligini oshirish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonlari sifatida yoritib berilgan. Bu borada O'zbekistonda qilinayotgan qarorlar bunga yaqqol misoldir. Aholi farovonligini oshirish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadi ekani haqida fikr yuritilgan. Shu jumladan, aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun uning “tur mush darajasi”, “xalq farovonligi” va boshqa shu kabi turli tushunchalar qo'llanilgan. O'zbekistonda aholini moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasi, istiqbolli fikrlar, mulohazalar hamda takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: aholi farovonlik, moddiy farovonlik, tur mush tarzi, aholi jon boshga umumiy daromadlari, xizmatlar sohasi, kichik biznes.

Аннотация

Высказано мнение, что благополучие – извечная цель каждого народа, критерий развития страны. Повышение благосостояния населения выделено в качестве важнейшего критерия оценки эффективности государственной социально-экономической политики. Решения, принимаемые в нашей стране в этом направлении, служат ярким примером этого. Считается, что повышение благосостояния населения – главная цель общественного развития. В частности, для выражения уровня благосостояния населения используются различные понятия, такие как «уровень жизни», «благосостояние народа» и другие. Рассматривается уровень удовлетворения материальных, духовных, социальных потребностей населения в Узбекистане, приводятся перспективные идеи, комментарии и предложения.

Ключевые слова: благосостояние населения, материальное благополучие, образ жизни, совокупный доход населения на душу населения, сфера услуг, малый бизнес.

Abstract

The concept of welfare has long been regarded as the ultimate goal of every nation and as a key indicator of a country's development. Enhancing public welfare is highlighted as one of the most important criteria for evaluating the effectiveness of state socio-economic policy. The decisions currently being implemented in our country serve as clear evidence of this. The paper discusses the idea that improving public welfare constitutes the principal objective of social development. In this regard, various terms such as “standard of living,” “public welfare,” and other related notions have been employed to express the level of well-being of the population. The study also considers the extent to which the material, spiritual, and social needs of the population

are being met in Uzbekistan, and presents forward-looking perspectives, reflections, and proposals.

Keywords: public welfare, material well-being, lifestyle, per capita income, service sector, small business.

KIRISH

O'zbek xalqi qadim-qadimdan yaxshi niyat va halol mehnat bilan farovon hayot kechirishga odatlangan. Aholi dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, hunarmandchilik qilishi evaziga o'z mehnati bilan to'q va farovon yashab kelgan.

Shahar tipidagi maskanlarda hayot tarzimiz bir qadar o'zgargan; bu hodisa bevosita integratsiya va global olam jarayonlari bilan ijobiy bog'liq bo'lib, demografik hisobga ko'ra yoshlarni doimiy ish bilan ta'minlash, xizmatlar sohasini rivojlantirish, tadbirkorlikka jalb qilish, intellektual salohiyatini oshirish va intensiv sharoitda xo'jalik yuritishni taqozo etmoqda.

Moddiy farovonlik – bu jamiyat, ayrim kishilar va ijtimoiy guruhlarining moddiy ne'matlar bilan ta'minlanganligi, kishilarning moddiy ehtiyojlarini qondirish darajasi hisoblanadi. Aholi farovonligi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Aholi farovonligini oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. “Aholi farovonligi” tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo'lgan keng qamrovli tushunchadir [1].

Aholi farovonligi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanganligi va ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi. Farovonlik darajasini ifodalash uchun “turmush darajasi”, “xalq farovonligi” va boshqa shu kabi turli xil tushunchalar qo'llaniladi. Aholi farovonligi – aholi ehtiyojlariga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga, aholining ma'naviy-ma'rifiy saviyasiga, ilmiy-texnik taraqqiyotga va boshqa shu kabi omillarga bog'liqdir.

Aholining farovonligi bir tomondan muntazam o'zgarib turadigan turli ijtimoiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlar tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan esa u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari bilan belgilanadi. Biroq ish haqi miqdori ham, farovonlik darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi va milliy xususiyatlariga, shuningdek siyosiy hokimiyatga bog'liq.

Har qanday jamiyatda kishilar moddiy farovonlikning asosi shu mamlakatning milliy moddiy boyligidir. Jamiyatning va kishilarning moddiy farovonligi ularga tegishli bo'lgan, ular ixtiyoridagi moddiy ne'matlar yig'indisiga, joriy moddiy ishlab chiqarish darajasiga, olinayotgan daromadlarga, iste'mol qilinayotgan moddiy ne'matlar miqdori va sifatiga bog'liq.

ADABIYOTLAR SHARHI

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 21-maqsadida: “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori

o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiritish maqsad qilib belgilangan" [2].

«O'zbekiston – 2030» strategiyasida: "...barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash" belgilangan [3].

Boyev va Adilovlarning fikricha, "Respublikamizda bozor munosabatlari asosida iqtisodiyotning rivojlanishiga o'tilishi daromadlar tengsizligini yanada kuchaytirdi. Davlat daromadlarni boshqarish va tartibga solishda shunga e'tibor berishi zarurki, xususiylashtirish jarayonida sodir bo'layotgan mulkning qayta taqsimlanishi aholining ma'lum guruhlar uchun mulkdan daromad chiqarish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. Ayniqsa, sarmoyaning dastlabki to'planishi jarayonida ko'p sonli suiiste'molliklar sodir bo'ladi hamda ayrim tabaqalar qo'lida osonlik bilan daromad to'planishiga imkoniyatlar vujudga keladi" [4].

Turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlari (indikatorlari) aholi daromadlari bo'lib, akademik Q.X. Abdurahmonov "turmush darajasi" tushunchasining mazmunini iste'mol sohasi bilan cheklaydigan mualliflar nuqtai-nazarini to'g'ri deb hisoblaydi. Uning fikricha, turmush darajasi deganda aholining zarur moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanish darajasi, ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi [5].

G'arb olimlari Torsteyn Bunde Veblen (1857–1929), Djon Rodjers Kommons (1862–1945), Uesli Kler Mitchell (1874–1948), Gobson Djon Atkinson (1858–1940), Uilyam Donald Gamilton (1936–2000)lar ta'kidlashicha, har bir muayyan davrda butun jamiyat va uning barcha a'zolarining eng muhim moddiy ehtiyojlari, ya'ni hayotiy makonga va tabiiy resurslarga, ishlab chiqarish vositalariga, iste'molbop ne'matlarga bo'lgan moddiy ehtiyojlari shu jamiyatda mavjud bo'lgan jami moddiy-ashyoviy boylik bilan qondiriladi. Kishilarning tabiiy va ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlar bilan umuman, hamda aholi jon boshiga ta'minlanganligi aholi moddiy farovonligining asosidir [6].

Shuning uchun hozirgi paytda dunyoda har bir mamlakat milliy boyligini, shu jumladan milliy tabiiy va ishlab chiqarilgan boyligini hisoblashga alohida ahamiyat bermoqda. Moddiy ashyoviy boylik tarkibidagi tabiiy boylik va ishlab chiqarilgan (jamg'arilgan) boylik alohida-alohida hisobga olinishi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylab, undan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish, jamg'arilgan boylikning uzluksiz kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishi va ko'paytirilishi moddiy farovonlikni saqlash va oshirishning eng muhim shartidir [7].

Milliy boylikni saqlash va ko'paytirishda, shu yo'l bilan moddiy farovonlikni ta'minlashda, oshirishda davlat va uning milliy ijtimoiy-iqtisodiy siyosati muhim o'rin

tutadi. Davlat buyurtmalari va investitsiyalari ish joylarini ko'paytirishga, aholi daromadlarining o'sishiga ijobiy ta'sir etadi. Soliqlarning va davlat xarajatlarining optimallashtirilishi esa soliq yukini kamaytiradi va kishilar ixtiyoridagi daromadlarni ko'paytiradi, bu moddiy farovonlikka ijobiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga, moddiy farovonlik, iste'mol bo'yicha optimal normativ va normalari, aholini ijtimoiy himoyalash mexanizmi hamda dasturlarining takomillashtirilishi katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA

Aholi farovonligi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Aholi farovonligini oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. "Aholi farovonligi" tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo'lgan keng qamrovli tushunchadir.

Aholi farovonligi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanganligi va ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi. O'zbekistonda aholini moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalovchi "turmush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Aholi farovonligi yoki turmush darajasi aholi ehtiyojlariga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga, ilmiy-texnik taraqqiyotga, aholining ma'naviy-ma'rifiy saviyasiga va boshqa shu kabi omillarga bog'liqdir.

Aholining farovonligi bir tomondan muntazam o'zgarib turadigan turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarining tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari va ish haqi bilan belgilanadi.

Aholi farovonligi darajasining eng mufassal talqini quyidagicha: aholi farovonligi – bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qoniqtirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Bunday talqin aholi farovonligi darajasining sifat va miqdor ko'rsatkichlarini yanada to'liqroq ifodalashga imkon yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin mamlakatdagi barcha tabiiy ne'matlar (yerlar, yer osti va yer usti boyliklari va boshqa resurslar) umumiy mulkka, boylikka aylantirildi va jamiyat a'zolari uning mulkdorlari hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning bir qismi xususiylashtirilgan mulkchilarga aylandi; yerga va boshqa mulklarga ijara asosida egalik joriy etildi. Yerlar yakka, guruh, shirkat, jamoa, korporativ xo'jalik yuritish uchun, shuningdek, fermerlik va dehqon xo'jaliklarini tashkil etish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarga taqsimlab berildi.

Mamlakatning ishlab chiqarish va jamg'arilgan moddiy boyliklari ko'paydi va takomillashdi; aholining nominal va real daromadlari oshdi, kundalik iste'mol-bop mollar va uzoq muddatli mahsulotlar bilan ta'minlanganligi yaxshilandi. Shu bilan birga, aholining keskin va katta darajada tabaqalanishining oldini olish hamda milliy moddiy boylikni farovonlikni yuksaltirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-siyosiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasi, kichik biznes, xususan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doimiy e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu tarmoq yangi ish o‘rinlari yaratish, oilalarning barqaror daromad manbasini shakllantirish va moddiy farovonligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-mart holatiga aholi umumiy daromadlari 222,4 trillion so‘mni tashkil etdi. Aholi daromadlari bo‘yicha real o‘sish sur‘atlarini hisoblashda narx omillarini chiqarib tashlash maqsadida inflyatsiya ko‘rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste‘mol narxlari indeksi (INI)dan foydalaniladi. Iste‘mol narxlarining o‘zgarishi sababli, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o‘sish sur‘ati 109,8 % ni tashkil etdi.


1-jadval

Aholining umumiy daromadlari 2025-yil yanvar-mart davrida^[10].

Ko‘rsatkichlar	Xajmi	Nominal o‘sish surati,% da	Real o‘sish surati,% da
Aholining umumiy daromadlari (trln so‘m)	222.4	120.9	109.8
Aholi jon boshiga umumiy daromadlari(mln so‘m)	5.9	118.5	107.6

Bundan ko‘rish mumkinki, 2025-yilning yanvar-mart holatiga ko‘ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar 5,9 million so‘mni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o‘sish sur‘ati 118,5 % ni, real o‘sish sur‘ati esa 107,6 % ni tashkil etdi (1-rasm).

Aholi jon boshiga umumiy daromadlar 2020-2025 yillarning yanvar-mart oylarida (ming so‘m)



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlar dinamikasi¹

¹ stat.uz

2020-yilning yanvar-mart holatiga ko'ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar 2,4 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilga kelib deyarli 2,4 baravar ko'paydi. Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o'sish sur'ati 2021-yilning yanvar-mart oylarida 118,8 %, 2025-yilning yanvar-mart oylarida esa 118,5 % ni tashkil etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biz aholi jon boshiga umumiy daromadlarning yillar davomida o'zgarishini ko'rib chiqdik. Aholining farovonlik darajasi to'g'risida batafsil ma'lumotga ega bo'lish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste'mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqa imkoniyatlar bilan ta'minlanganlik darajasini chuqur o'rganish lozim.

Bundan tashqari, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali o'rta mulkdorlar sinfi shakllanadi, makroiqtisodiy beqarorlik, ishsizlik va taqchillik kabi iqtisodiy muammolar barham topadi, sog'lom raqobatchilik muhitining yaratilishi orqali YaIMning miqdor va sifat jihatidan o'sishi kuzatiladi, ichki bozor zarur tovar va xizmatlar bilan to'yinadi va ularning sifati oshadi, natijada aholi turmush darajasining o'sishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rasulov D.M, Almurodov A.A, Xomidov S.O Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash: "O'quv qo'llanma" –Toshkent 2019-156 bet
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabr PF-158- son «O'zbekiston — 2030» Strategiyasi to'g'risidagi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
4. Boyev X.I., Adilov B.B. Aholi daromadlarini davlat tomonidan boshqarish zaruriyati. Iqtisod va moliya. 2018, 5 – 58 b.
5. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Toshkent, "Mehnat" 2009. 357- b. Режим доступа: <https://www.wttc.org/economic-impact/countryanalysis/country-data/>. –Дата доступа: 02.09.2019. Country Data [Электронный ресурс] / World Travel and Tourism Council.
6. Aliyev B Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 3
7. Ходжаев Р., А.Эгамбердиев, Ф.Қ. Шоюсупова. Кичик бизнесни бошқариш. ТМИ Ўқув қўланма. Т.: "IQTISOD — MOLIYA", 2008
8. stat.uz



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**